



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 25-aprel, seshanba,
48 (23.769)-son

**KUN
HIKMATI**

Davralarda
allomalar fikrini
ehtiros bilan
o'qish ulug'likni
belgilamaydi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

KONSTITUTSIYA – MENIKI, SENIKI, BIZNIKI!



281 masjidida HAYIT NAMOZI o'qildi

21-aprel kuni mamlakatimizda Ramazon hayiti keng nishonlandi. Jumladan, viloyatimizdagi 281 ta masjid-da hayit namozini to'la-to'kis ado etish uchun zarur shart-sharoit yaratildi. Samarqand shahridagi jamoat transporti har galgidan barvaqt, ertalab soat 5.00 dan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishni boshladi. Tegishli idoralar tomonidan masjidlar va ular atrofida xavfsizlik ta'minlandi. Savdo yarmarkalari tashkil etildi.

Viloyat hokimi E.Turdimov va viloyat bosh imom-xatibi Z.Eshonqulov Samarqand shahridagi Namozgoh masjidida hayit namozi o'qilishida ishtirok etib, mo'min-musulmonlarni bayram bilan tabrikladilar.

– Bu yilgi Ramazon oyi butun mamlakatimizda, jumladan, viloyatimizda ham xalqimizga xos an'ana va qadriyatlar asosida, o'zgacha shukuhda o'tdi, – dedi viloyat bosh imom-xatibi Zayniddin Eshonqulov. – Tuman va shaharlardagi 286 ta masjid-da taroveh namozi o'qildi, 166 ta masjidida xatmi Qur'on qilindi. Xatmonalar O'zbekiston musulmonlari idorasi belgilagan tartibda, ya'ni masjidlarda bir vaqtda boshlanib va muborak oyning Qadr kechasida yakunlandi. Bu oyda, ayniqsa, "Inson qadri uchun!" tamoyili asosida o'tkazilayotgan islohotlarga mos tarzda mehr-muruvvat, saxovat tadbirlari keng quloqchoyoydi. Davlatimiz rahbarining e'tibor

va g'amxo'rliklari tufayli ushbu muqaddas oyda viloyatimizdan 100 nafar kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalar vakillari va faol nuroniyalarimiz davlat hisobidan Saudiya Arabistonida muborak Umra safariga borib keldilar. Har bir mahallada ehtiyojmand aholi uchun iftorlik marosimlari tashkil etildi. Shuningdek, viloyatimiz rahbarlari, mas'ullar ishtirokida mahallalardagi ijtimoiy ko'makka muhtoj insonlar, keksalar xonadonida iftorlik dasturxonlari yoziydi, ularga sovg'a-salomlar ulashildi. Kam ta'minlangan, yolg'iz va nogironligi bo'lgan insonlar holidan xabar olinib, ularga amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Hayit munosabati bilan davlatimiz rahbari qaroriga ko'ra, 21-aprel dam olish kuni, 24-aprel esa qo'shimcha dam olish kuni, deb e'lon qilinib, yurtudoshlarimizga uzluksiz to'rt kun hordiq chiqarish va ushbu bayramni nishonlash uchun imkoniyat yaratildi.

Markaziy harbiy okrug qo'shinlarida yigittik burchini o'tashga kirishgan muddatli harbiy xizmatchilar Vatanga qasamyod qilishdi.

Samarqand gornizonidagi harbiy qismlarda xizmat burchini o'tashga kirishgan muddatli harbiy xizmatchilarning tantanali qasamyod tadbirida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov, Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, polkovnik Farrux Ziyabayev, O'zbekiston Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashining hududiy bo'limi vakillari, faxriylar hamda askarlarning ota-onalari va yaqinlari ishtirok etishdi.

Yurtga qalqon bo'lib, Vatanga xizmat qilish uchun tantanali qasamyod qilgan askarlarni oila a'zolari ko'zlarida quvonch va faxr tuyg'usi bilan kuzatib turdi.


Askarlarga "Temur tuzuklari", "O'zbekiston tarixi" kitoblari topshirildi.

Shuningdek, askarlar orasida qisqa fursat ichida jismoniy va ma'naviy tayyorgarligi yuqori bo'lgan va barchaga namuna bo'lib kelayotgan askarlarning ota-onalariga harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligining tashakkurnomasi topshirildi.

Harbiy orkestr jamoasi, viloyat drama teatri ijodkorlarining tarixiy siymolar haqidagi sahna ko'rinishlari, harbiy xizmatchilar tomonidan tayyorlangan qo'l jangi va faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlari yig'ilganlarga bayramona kayfiyat ulashdi.

A.ISROILOV.

BURCHGA SODIQLIK MARDLARGA XOS



Samarqandlik 67 nafar shaxs afv etildi

Davlatimiz rahbarining muborak Ramazon hayiti arafasida qabul qilingan farmoniga ko'ra, jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 541 nafar shaxs afv etildi.

Bag'rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat va kechirimli bo'lish xalqimizga xos noyob fazilat. Bu davlatimiz siyosatida ham aks etib, jinoiy qilmishi uchun jazo o'tayotgan shaxslar turli bayram va muhim sanalar oldidan Prezidentimiz tomonidan afv etilmog'ida.

Bu galgi farmon ham Ramazon hayiti kunlarida 540 dan ortiq xonadonga quvonch, shodlik olib keldi. Nojo'ya xatti-harakati uchun jazolangan va bu qilmishidan xulosa chiqarib, pushaymon bo'lgan shaxslar davlat rahbarining bag'rikengligidan bahramand bo'lib, bayramni oilasi bag'rida nishonladi.

Jumladan, viloyatimizdagi jazoni ijro etish muassasalari va ichki ishlar idoralari probatsiya organlarida jazo muddatini o'tayotgan 67 nafar shaxs farmon asosida afv etildi.

Viloyat IIB probatsiya bo'limidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, afv etilganlarning 52 nafari ichki ishlar organlari probatsiya hisobidan to'liq, 15 nafari jazoni ijro etish muassasalaridan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi. Ularning 51 nafari erkaklar, 16 nafari ayollar tashkil etadi. Oltmish yoshdan oshganlar – 15 nafar.

Narpaylik M.Yo'ldoshev davlatimizning bag'rikenglik siyosatidan bahramand bo'lgan shaxslardan biri. U Jinoyat kodeksining 270 va 273-moddalari bilan ayblanib, ozodlikdan mahrum etilgan edi.

– Qilayotgan ishning oqibatini o'ylamay bu nojo'ya ishga qo'l urganim oqibati nima bo'lishini ko'rdim, – deydi M.Yo'ldoshev. – Bu bilan oila a'zolarimni qiyin ahvolda solib qo'ydim. Pushaymonligim inobatga olinib, afv etilganim uchun Prezidentimizdan minnatdorman. Endi faqat to'g'ri hayot kechirib, halol mehnat qilib, ro'zg'or tebrataman.

Endilikda mahalliy hokimliklar va mutasaddi idoralardan afv etilgan shaxslarning bandligini ta'minlash, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Bag'rikenglik

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari mustahkamlanyapti

Rivojlangan jamiyatda inson huquq va erkinliklarini, tenglikni ta'minlash ustuvor hisoblanib, hech kimni kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Konstitutsiya bo'yicha barcha fuqarolar, shu qatorida nogironlar ham teng huquqqa ega. Lekin Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqlarni amalga oshirishda teng imkoniyatlar mavjud emas. Qolaversa, amaldagi Asosiy qonunimizda "nogironlik" yoki "nogironligi bo'lgan shaxslar" atamallari umuman ishlatilmagan. Shuning uchun yangilanayotgan Konstitutsiyada nogironligi bo'lgan shaxslarga teng huquqlar bilan birgalikda, boshqa fuqarolar qatori teng imkoniyatlar yaratishni davlat kafolatlayapti.

Xususan, yangilanayotgan Konstitutsiyaning 26-moddasida har bir shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga yo'naltirilgan bir necha eng muhim tamoyillar mustahkamlanmoqda. Unda xususan, insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsiz ekanligi va hech bir narsa ularni kamsitish uchun asos bo'la olmasligi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, 57-moddada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilangan.

Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoit yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi. Davlat nogironligi bo'lgan

shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari jamoat birlashmalarini sifatida e'tirof etiladi. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqibqarib yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi.

41- va 45-moddalarda maxsus ta'limga ehtiyojmand va individual imkoniyatlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiya tashkil etiladi, deyilgan. Bunda davlat aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarining hayot sifatini yaxshilashga, boshqa fuqarolar bilan jamiyat va davlat hayotida teng ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishga va asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan me'yorlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qayd etilgan bo'lsa-da, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamli huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan moddalarning kiritilganligi nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari himoya qilinishida yanada mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

**Dilmurod PARDAYEV,
Nogironlar jamiyati viloyat bo'limi raisi.**

Uchastkamiz referendum o'tkazishga tayyor

Yurtimizda joriy yilning 30-aprel kuni o'tkaziladigan muhim siyosiy jarayon – O'zbekiston Respublikasi referendumiga tayyorgarlik ishlari va muddatidan oldin ovoz berish jarayonlari qizg'in davom etmoqda. Viloyatimizda 1111 ta referendum uchastkasi tuzilgan bo'lib, eng ko'p uchastka Samarqand shahrida (175 ta) joylashgan.

Jumladan, Samarqand shahridagi 34-referendum uchastkasi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabida joylashgan. Mazkur referendum uchastkasida 1980 nafar ovoz beruvchi ro'yxatdan o'tkazilgan. Ushbu fuqarolarning 16 nafari ilk bor ishtirok etayotgan yoshlar va 1 nafari nogiron bo'lib, ularning tegishli tartibda ovoz berishi uchun sharoit yaratilgan.

– Uchastkamizda 11 nafar komissiya a'zosi faoliyat yuritmoqda, – deydi 34-referendum

uchastka komissiyasi raisi N.Saliyev. – Ular bilan birgalikda uchastkamizga tegishli So'fi Roziq va Ko'k masjid mahallalariga borib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyati hamda referendum kuni va vaqti, ovoz berish tartibi to'g'risida fuqarolarga tushuntirishlar berilmoqda. Ayni vaqtda referendum o'tkazish uchun ovoz berish joyi, komissiya a'zolarining faoliyat yuritishlari uchun barcha qulaylik yaratilgan. Belgilangan tartibda texnik jihozlar va turli qo'llanmalar bilan ta'minlangan.



BOSH QOMUSIMIZDA MULKDORNING HUQUQLARI TO'LIQ HIMOYALANADI

Konstitutsiyaviy islohot arafasidamiz. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya amaldagi Konstitutsiyadan hajmi va mohiyati bo'yicha jiddiy farq qiladi. Amaldagi Konstitutsiyadagi moddalar soni 128 ta bo'lsa, yangisida ularning soni 155 tani tashkil etadi. Undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshirilgan.

1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 17-moddasiga ko'ra, har bir inson yakka holda, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega. Hech kim zo'rovonlik bilan o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas. Mol-mulk huquqi daxlsizligini sud orqali himoya qilish xorijiy rivojlangan davlatlarda yuksak darajada ta'minlangan. Mulk huquqi daxlsizligi qoidasi boshqa ilg'or xorijiy mamlakatlar - Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Turkiya va Kanada kabi davlatlar tajribasida samarali qo'llaniladi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyaning 65-moddasida fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi belgilanmoqda. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratishi, iste'molchining huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlash o'z aksini topmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqi jihatdan himoya qilinishi ta'minlanishi qat'iy belgilab qo'yilmoqda.

To'g'ri, xususiy mulk daxlsizligi bilan bog'liq norma amaldagi Konstitutsiyada ham mavjud. Biroq unda mulkdorni o'z mol-mulkindan mahrum etishda sudning qaroriga asoslanishga jiddiy urg'u berilmagan sabab turlicha talqinlar yuzaga kelayotgandi. Ya'ni, ushbu me'yorni qo'llashda mahalliy hokimiyat qarorlariga ustuvorlik berib kelinyotgandi. Yangi Konstitutsiya qabul qilinishi bilan bunday holatlariga to'liq barham beriladi.

Endilikda "Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak"ligiga oid norma Asosiy qonunga kiritilmoqda.

Iqtisodiyotimiz negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etar ekan, mulk huquqi buzilishiga olib keladigan har qanday xatti-harakat g'ayriqonuniy yoinki mulk huquqini amalga oshirishni cheklash yoki bekor qiluvchi ma'muriy organlar qarorlari ma'muriy sudlar tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

O'tgan vaqt davomida mulk huquqi himoyasiga doir amaldagi qonun hujjatlari bir muncha takomillashtirildi. Qabul qilingan ushbu hujjatlar mulkdorning huquqlarini kafolatlash, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan

mulkdorning huquqlarini buzish bilan bog'liq xatti-harakatlariga chek qo'yish, bu kabi harakatlar uchun jinoiy javobgarlikka bo'lgan ta'sir choralarini qo'llashni o'z ichiga oladi. Jumladan, mulkdor huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida davlat organlari va boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat etganida "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, davlat boji to'lashdan ozod qilingan.

Avvallari sud amaliyotida mulkdorning huquqlari bilan bog'liq nizolarda shubhasiz "snos"lar, ya'ni mulkdorning ko'chmas mol-mulklarini hokimliklarning qarori bilan buzish holatlari yaqqol ko'rindi. Bu borada mamlakatimiz rahbari tomonidan tegishli tartiblar va qoidalar tasdiqlanib, keyinchalik uzil-kesil qonun shaklida, ya'ni 2022-yil 29-iyunda "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bir necha yildan buyon davom etib kelayotgan muammolarga uzil-kesil barham berdi. Jumladan, qonun bilan yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishga asos bo'ladigan maqsadlarning tugal ro'yxati tasdiqlanib, haqiqatdan ham jamoat ehtiyoji bo'lgan 6 maqsaddan boshqa har qanday holatlarda yer uchastkalarini olib qo'yishni jamoat ehtiyojlari uchun deb baholash taqiqlandi.

Yer uchastkasi jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi eng so'nggi chora ekanligi ko'rsatib o'tildi va eng muhimi, tashabbuskor yer uchastkasini olib qo'yish eng so'nggi chora ekanligini mahalliy kengash va jamoatchilik oldida isbotlab berishi kerakligi belgilandi.

Endi "snos"ga tushgan bino uchun kompensatsiya to'lashga zarur mablag' bo'lmasa, bunday tashabbus bilan chiqilmaydi. Ya'ni, mablag' tayin bo'lmagan holda buzish qat'iy ta'qiqlandi. Yer uchastkasini olib qo'yish tashabbusini ma'qullashdan boshlab, uni olib qo'yish, olib qo'yilgan yer uchastkasidagi ko'chmas mulklarini buzishgacha bo'lgan jarayonlar mahalliy kengash deputatlari tomonidan uch marotaba ko'rib chiqiladi. "Snos" bilan bog'liq barcha huquqiy jarayonlar elektron tizimlar orqali amalga oshiriladi, shu jumladan, qabul qilingan qarorlar, tuzilgan shartnomalar va berilgan kompensatsiyalarning hisobi elektron yuritiladi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2022-yil 24-avgustda "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulk muunosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur amaliyot 2022-yil 1-sentabrdan xususiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini bevosita yoki bilvosita cheklashni nazarda tutuvchi bir qator tartib va talablarni bekor qilindi. Bunday tartib va talablarni mulk munosabatlarida bozor iqtisodiyoti tamoyillarini to'liq amalga oshirishga to'sinlik qilayotgan edi. Xususan, yer uchastkalar-



iga bo'lgan huquqdan foydalanish, uy-joyga bo'lgan mulk huquqlarini amalga oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan yer uchastkalari, bino va inshootlar, transport vositalaridan foydalanishga, shuningdek, korporativ munosabatlarga doir cheklovlar bekor qilindi.

Mulkka bo'lgan huquqni uni vujudga keltirgan hujjatni bekor qilish orqali tugatish mumkin emas. Agar hujjat no-qonuniy qabul qilingan bo'lsa, faqat sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Shuningdek, "Xabes korpor" instituti doirasida surishtiruvchi va tergovchining mol-mulki xatlash bilan bog'liq qarorlarini sudda ko'rib chiqish tartibi joriy etildi. Xususiy mulk huquqi daxlsizligini buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladigan holatlar belgilab berildi. Shu jumladan, endilikda xususiy mulk obyekti va u joylashgan hududga mulkdorning ruxsatisiz kirish uchun jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo'lgan choralar qo'llanishi mumkin.

2023-yil 1-yanvardan "Kadastir va ko'chmas mulklarni ro'yxatdan o'tkazish integratsiya axborot tizimi" (UZKAD) ko'chmas mulkka oid yagona axborot bazasi ishga tushirildi. Tizimda ma'lumotlarning haqiqiyliyi va ishonchligi davlat tomonidan kafolatlanadi. Agar turarjoy UZKAD tizimidagi noto'g'ri ma'lumotlarga ishonib xarid qilingan bo'lsa, 3 yildan keyin sotib oluvchidan (insolli egalovchi) ushbu uyning talab qilib olish mumkin emas. Dastlabki mulkdorga yetkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanib, keyinchalik aybdordan undiriladi.

Hozirda "snos" bilan bog'liq davolarda mulk bahosi ko'p hollarda nizoga sabab bo'lmoqda. Odatda mulkdorga yetkazilayotgan zararlar qoplanayotganda qonun bozor narxini mezon qilib qo'yadi. Biroq bozor narxini baholovchi tashkilotlar, ekspert xulosalari belgilaydi. Ko'pincha bunda buzdiradigan taraf yoki davlatning tegishli mutasaddi tashkilotlari ekspert xulosasini beradi va bunda albatta, haqiqiy baho bilan birmuncha farqlanadi.

Indallosini aytganda, konstitutsiyaviy islohotlar aholining turmush farovonligini oshirish, yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash bilan birga, mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama va jadal rivojlantirish hamda davlat organlari bilan munosabatlarda xususiy mulk huquqlarining kafolatlarini ta'minlash uchun bevosita sharoit yaratishda kuchli qalqon bo'ladi.

Shohruh MAJIDOV,
O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi katta eksperti.



HUQUQIY MASLAHAT

SHIFOKORMAN, MAXSUS USTAMA TO'LANADIMI?

- Yaqinda shifoxonaga ishga joylashdim. Tanishlarim yangi ish boshlagan yosh vrachlarga 1 million so'mgacha ustamalar beriladi, dedi. Bu ustama menga ham to'lanadimi?

Gulbahor MIRZAYEVA,
Ishtixon tumani.

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomga ko'ra, tibbiyot muassasasining yuqori malakali, alohida natijaga erishgan, halol va vijdonan ishlayotgan tibbiyot hamda farmatsevtika xodimlariga oylik lavozim maoshining 100 foizigacha hamda boshqa xodimlarga 75 foizigacha, yangi ish boshlagan salohiyatli yosh shifokorlarga 1 million so'mgacha maxsus, oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar va ko'p tarmoqli shifokor hamda hamshiralariga lavozim maoshining 30 foizigacha qo'shimcha oylik ustamalar beriladi.

Ustamalar tibbiyot muassasasi xodimlarini reyting baholash tizimi asosida amalga oshiriladi.

MAHKUMNING ISHI PENSIYAGA "FOYDALI" BO'LADI

- Turmush o'rtog'im jazoni ijro etish muassasasida. Aytgich, mahkumlarining jazoni o'tash davrida bajaradigan ishi pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shiladimi?

(Ismi sir tutildi).

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tash davrida bajaradigan har qanday ishi, agar ushbu ish bajarilgan davr uchun jazoni ijro etish muassasasi tomonidan ijtimoiy soliq to'langan bo'lsa, pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

NOGIRONLAR UCHUN IMTIYOZ BORMI?

- Bolalikdan nogironman. Qonunchilikda nogironligi bor shaxslar uchun imtiyozlar mavjudmi?

Dilfuza BOTIROVA,
Payariq tumani.

"Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga muvofiq, 2023-yilda muhtoj shaxslar zamonaviy oyoq protez-ortopediya buyumlari, ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan va I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar soni protezi, boldir protezi va oyoq kamari ortoped apparatlari bilan bepul ta'minlanishi belgilangan.

Joriy yil 1-sentabrdan nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlashda tibbiy xulosa talab qilinmaydi.

Shuningdek, 1-maydan shifoxonalarda davolanayotgan nogironligi bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilayotgan shaxslarga ham bolaning yonida bo'lish uchun sharoit yaratiladi hamda mazkur davr uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi va bepul ovqat beriladi.

Agarda pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari bolani nogironligi bo'lgan shaxs, deb topganda ularga pensiya tayinlashda qaytadan tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborish bekor qilinadi. Bundan tashqari, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar va ularga g'amxo'rlik qiluvchilar davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanadi, mansabdor shaxslar qabuliga navbatsiz kiradi.

MUROJAAT QILMASA HAM NAFAQA TAYINLANADI

- Shu paytgacha nogironligi bo'lgan bolaga murojaat qilinganidan keyin nafaqa tayinlanardi. Shunda ham ayrim hollarda ariza qanoatlantirilmadi. Endi bu tartib o'zgardi, deysizmi?

Tursunmurod OBIDOV,
Jomboy tumani.

Darhaqiqat, bu borada qonunchilikda o'zgarishlar bo'ldi. Ya'ni, endi hukumat qarori bilan (119-son, 23.03.2023-y.) tasdiqlangan "Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom"ga asosan, nogironligi bo'lgan bolalarga nafaqa murojaat qilinganligidan qat'i nazar, tayinlanadi.

Nizom bilan quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqalarini tayinlash tartiblari belgilandi: nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga; o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakiliga; davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lgan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga; davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan vafot etgan shaxsning qaramog'idagi oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolariga;

davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi shaxslar hamda bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor (bo'lgan) onalarga. Shunga ko'ra, nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik, parvarishlash, boquvchisini yo'qotganlik va yoshga doir nafaqalar tayinlanadi.

Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nafaqa hamda parvarishlash nafaqasi Pensiya jamg'armasi tomonidan "proaktiv shakl"da tayinlanadi. Nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik va yoshga doir nafaqalar tayinlanishi uchun davlat xizmatlari markazlari yoki YalDXP (my.gov.uz) orqali murojaat qilinadi. Davlat xizmatlari markazidan ma'lumot olingandan so'ng 5 daqiqa ichida nafaqa tayinlangan taqdirda, nafaqani qachon va qayerdan olish to'g'risida murojaat qiluvchi xabardor qilinadi.

Savollarga viloyat adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i Sherzod AZIZOV javob berdi.



100 yoshli ONAXON HOKIMDAN XAFAMI?

Urgut tumani Mo'minobod mahallasida yashovchi Oydin aya 104 yoshni qarshilayapti. U turmush o'rtog'i Hayitboy ota bilan 5 farzandni voyaga yetkazib, ularning baxtu kamolini ko'rdi. Bugungi kunda 31 nevara, 78 chevara, 3 nafar evaraning sevimli buvisi.

- Turmush o'rtog'im Ikkinchi jahon urushida qatnashib, bir oyog'idan ayrilib, qaytib keldi, deydi onaxon. - Urushda orttingan kasalliklari tufayli 70 yoshida olmandan o'tdi. Bolalik va yoshlik davrimiz qiyinchiliklarini eslagim kelmaydi. Bir burda nonga zor bo'lgan kunlarimiz ko'p bo'lgan. Har yili qishdan omon chiqishni o'ylardik. Bahorga yetsak, ko'katlarni qaynatib yeb, qorin to'yg'azardik. Tut pishsa, biz uchun bayram bo'lardi.

Uning to'ng'ich farzandi Shukurullo Boymurodov onasidan vaqtida xabar olib turmasa, tarsaki yeyishini aytadi.

- Yoshim 80 ga yaqinlashib qoldi, deydi u. - Ammo onam uchun haliyam bolaman. Agar vaqtida u kishining holidan xabar olib turmasam, yuzimga tarsaki tushiradi.

- Uraman-da, deydi onaxon kulib. - Shukurullo - katta o'g'lim. Men bilan birga yashamaydi. 3-4 kun ko'rmasam, sog'inib qolaman.

Oydin ayanning farzandlari, nevara-chevaralari yig'ilisa, hovliga sig'may ketadi. Onaxon ularga o'tmishi haqida gapirib, turmush o'rtog'i urushda bo'lgan vaqtlarda kuylagan

qo'shiqlarini hirgoyi qilib beradi. - Onam musichadek beozor, mehribon, deydi kenja o'g'il Mahmaddullo aka. - O'zlari maktabda ham o'qimaganliklari uchun biz, farzandlarini oliy ma'lumotli qilish uchun jon-jahdi bilan kurashgan va bunga erishgan. Madaniyat tizimida ishlab, pensiyaga chiqdim. Farzandlarini o'qitdik, endi nevaralarni o'qimishli qilyapmiz. Onam biz bilan yashaydi. Bundan 3-4 yil avval xotin-qizlar bayrami arafasida onam 100 yoshga to'lgan edi. Shunda mahallamizda "Hokim kelib, Oydin onani tabriklab ketarkan", degan gap tarqaldi. Barcha qarindoshlar yig'ilidiki. Mahalla faollari bilan u kishini kutdik. Ammo hech kim kelmadi. Sovg'asi kerak emas edi. Hokimlikdan bir vakil kelib ketganida ham bo'lardi. 100 yoshli momo hokim kim, vakili kim tanimaydiki. Shunda onamning biroz dilli og'rigandi.

Kimdir shu voqea haqida gapirib qolsa, onaxon "Hokimlar katta odam, ishi chiqib qolganlar, vaqti bo'lmagandir", deb qo'yarkan.

To'lg'in SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

O'qituvchi qadri oshadi

Yangilanayotgan Konstitutsiyada ta'limga oid modda va normalar qariyb ikki barobarga oshirilmoqda. Jumladan, fuqarolarning oliy ta'lim muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilanmoqda.

Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirilishi tahsinga sazovor. Sababi, o'qituvchi zimmasiga yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishdan-da muhimroq deb buyurilgan keraksiz ishlarning yukatilishi ularning kasbiga bo'lgan mehri sovushiga olib kelardi. Boshqa davlatlardagi o'qituvchiga berilgan eng yuksak maqom, e'tibor, hurmat va eng yuqori maosh biz ustozlarning ko'nglimizni cho'ktirardi. Endi esa o'qituvchi sha'ni va qadri Bosh qomusimizda qonuniy belgilab qo'yilmoqda. Mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o'qituvchining professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy yo'llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro'sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi berilmoqda. Keyingi yillarda yurtimizdagi 41 ta davlat oliy o'quv yurtiga akademik va moliyaviy mustaqillik berilishi ham ta'lim muassasasi uchun katta imkoniyatlar eishigini ochadi.

Endi farzandlar tarbiyasi, ularga ta'lim berish, barkamol voyaga yetkazish ham ota-ona majburiyati sifatida belgilanmoqda. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy,




aqily va madaniy jihatdan to'laonli rivojlaniishi uchun eng yaxshi shart-sharoit yaratishni davlatimiz o'z burchi sifatida zimmasiga olishi yurtboshimizning davlat xalq uchun xizmat qiladi, degan fikrlarining yaqqol isbotidir.

Konstitutsiyada har kimga mehnat uchun hech qanday kamsitishsarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lgan tarzda adolatlilik haq olish huquqi kafolatlanmoqda. Mazkur norma-ning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolarning ish haqlari miqdori shunchaki emas, aynan ularning munosib turmush kechirishini ta'minlash, pirovard natijada aholi turmush darajasini yaxshilash va mamlakatimizda ijtimoiy adolatlilikni ustuvor qadriyatga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bosh qomusimizdagi o'zgarishlarning tub mohiyatida "Inson qadri uchun" tamoyili yaqqol o'z aksini topgan. Asosiy qonunimizni isloh qilish borasidagi sa'y-harakatlar ushbu g'oyaning yangilangan Konstitutsiyada aks ettirilishini ta'minlaydi.

Fotima DAVRONOVA,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi.



14,2 ming talabaga TA'LIM KREDITI ajratilgan

Yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish va ularni davlat tomonidan ijtimoiy yo'llab-quvvatlash uchun 2022-yilda viloyatimizdagi 14 ming 229 nafar talabaga 146 milliard 290 million so'm ta'lim krediti ajratildi. Xususan, xotin-qizlarni ijtimoiy yo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida 10 ming 980 nafar xotin-qizning oliy ta'lim muassasasidagi to'lov-shartnomasi uchun ta'lim krediti berildi.

Ajratilgan ta'lim kreditlarini tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'pi Samarqand shahri (1750), Urgut (1358), Payariq (1256), Past Darg'om (1253), Bulung'ur (1055) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizdagi 2435 nafar talabaga 20 milliard 886 million so'm ta'lim krediti ajratilgan. Jumladan, 1782 nafar xotin-qizga 14 milliard 462 million so'm ta'lim krediti yo'naltirilgan.

Yoshlarning biznes tashabbuslari, startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikka o'qitish, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oya va loyihalarini ro'yobga chiqarish, shu asosda yoshlar bandligini ta'minlash "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasining asosiy vazifasi. Xo'sh, jamg'armaning viloyat filiali shularni bajaryaptimi?

"Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi yoshlarga qanday yordam beryapti?



- Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi, tadbirkorlik biznes oliy maktabi viloyat filiali, "German sparkassenstiftung" jamg'armasi hamda tuman va shahar hokimliklari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yganmiz, - deydi "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi viloyat filiali rahbari Dilshod Nabiyev. - Jumladan, hamkor tashkilotlar ko'magida viloyatimizning 15 ming nafardan ziyod tashabbuskor yoshlariga tadbirkorlik, biznes loyihalar, agrar soha, kredit va soliq siyosati, xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish yo'nalishlarida tushunchalar berilib, 3000 ga yaqin yoshlarga oliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda yoshlar dasturlari orqali 4 milliard so'mlik loyihalarini moliyalashtirilishiga ko'mak berildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-dekabrda "Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, viloyatda o'tgan yil yosh tadbirkorlarning 104 ta loyihasi o'rganib chiqildi va ularning 64 tasi besh bosqichda manzilli tasdiqlanib, maxsus sertifikatlar bilan hududiy tijorat banklariga yo'naltirildi. Xususan, 2022-yilda Milliy bank viloyat filialining tuman va shahar

bo'limlari tomonidan 21 milliard 89 million so'mlik 33 ta loyihaga 15 milliard 484 million so'm imtiyozli kredit mablag'i ajratilib, 200 dan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. Shu bilan birga, yoshlarning innovatsion, amaliy va istiqbolli startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash borasida maxsus o'quvlar tashkil etilib, respublika komissiyasi tavsiyasi bilan 4 nafar yoshning 200 million so'mlik loyihalarini jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. Joriy yil maktab o'quvchilarini zamonaviy kasblarga va tadbirkorlik faoliyatiga o'qitish yuzasidan jamg'armaning viloyat filiali tomonidan Samarqand shahri (65-81-71-maktablar), Past Darg'om (21-56-111-maktablar) va Urgut tumanlaridan (28-48-102-maktablar) namuna asosida tanlab olingan maktablarga jamg'arma tomonidan ko'mak ko'rsatildi va hududga yaqin tadbirkorlar ro'yxati shakllantirilib, maktablarga biriktirildi. 2023-yil davomida jamg'arma filiali va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda loyihalarni moliyalashtirish, motivatsion tadbirlar, forum va yarmarkalar, biznes sayohatlar, ko'rgazmalar, konsalting xizmatlari, xalqaro aloqalar, elektron bozor, biznes markazlar yo'nalishlari uchun rahbar o'quvlar tashkil qilinib, yoshlarning eng yaxshi loyihalarini saralab olinadi va faoliyati qo'llab-quvvatlanadi. **F.RO'ZIBOYEV.**

Xirosimadagi tinchlik xotira maydonida o'tkazilgan ko'rgazmalardan birida Samarqand xalqaro texnologiya universitetidan yuborilgan tinchlik ramzi - qog'ozdan qilingan qushcha obrazi qo'yilgan tematik stend namoyish etildi. Samarqanddan yo'llangan ramziy ushbu osori atiqani 30 yildan ortiq vaqt mobaynida Xirosimada istiqomat qilayotgan amerikalik olim va pedagog, doktore Ronald D.Kleyn kunchiqar yurtga olib borgan.

Joriy yilning fevral oyida Samarqandga kelgan professor Kleyn Xirosimaga tashlangan atom bombasining asoratlari turli millat vakillari tomonidan bugungi kunda qanday tasavvur qilinishi haqida universitet jamoasiga ma'ruza qildi. Shu bilan birga, Yaponiya universitetidagi do'stlar

Samarqanddan Xirosima tinchlik memorial muzeyiga yo'llangan noma

va hamkorlar yordamida Samarqand xalqaro texnologiya universitetida o'sha oq qog'ozdan yasalgan qushcha tasviri tushirilgan stendning kichik taqdimoti bo'lib o'tdi. Unga talaba va o'qituvchilar o'z imzolarini qo'yib, nafaqat yadro qurolsiz tinchlik sari intilishga, balki O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy xavfsizlik, tinchlik va Markaziy Osiyo va xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga hamisha tayyorligini qayd etishdi. Ta'kidlash joizki, yasalgan ko'shik Tinchlik xotira maydonining qog'oz markazida, Bolalarning tinchlik yodgorligi (Children's Peace Monument) yonida o'rnatilgan. Xirosimada atom bombasi portlashi natijasida halok bo'lgan

minglab begunoh bolalar xotirasiga qurilgan ushbu yodgorlik haqida batafsil to'xtalib o'tish joiz. 9 metri, uchburchak gumbazli yodgorlik bundan 65 yil oldin, 1958-yil mayda Yaponiya milliy bayrami - Bolalar kunida ochildi. Yodgorlik Yaponiya va to'g'riqizta xorijiy davlat aholisi tomonidan to'plangan mablag' evaziga qurilgan. Xirosimaga tashlangan atom bombasi oqibatida o'n yil nurlanish kasalligi bilan kurashib, vafot etgan yapon qizi Sadako Sasaki (1943-1955) sinfdoshlarining umum-milliy murojaatiga javob tariqasida 3100 ta yapon va 9 ta xorijiy maktablar pul mablag'larini "Marhamat, bu pullardan yodgorlik qurish uchun foydalaning", deb jo'natishdi. Mana, ko'p yillardan beri dunyoning turli burchaklaridan

qog'oz qushchalar ramzi tasvirlangan tinchlikka oid turli qaydnomalar ushbu yodgorlik qoshiga olib kelinmoqda. Mazkur yodgorlik tepasida oltindan yasalgan qog'oz qushchani boshi uzra ko'tarib turgan qizning bronza haykali qo'yilgan. Yodgorlik poyiga o'rnatilgan qora marmar toshda yapon tilida "Butun dunyoda tinchlik o'rnatish uchun bu bizning faryodimiz, bu bizning ibodatimiz" degan iqtibos keltirilgan. Yodgorlik gumbazi ostida oltindan yasalgan qog'oz qushcha va shamolda tebranuvchi tinchlik qog'ozining nusxalari o'rnatilgan bo'lib, ularning asli hozir Xirosima tinchlik memorial muzeyiga saqlanmoqda. Bu ikkala osori atiqani taniqli tinchlik kurashchisi, yapon olimi, Nobel mukofoti sovrindori Hideki Yukawa (1907-1981) hadda qildan. Tinchlik memorial bog'ida namoyish etilgan mavzuli stendda ingliz tilida "Samarqand xalqaro texnologiya universitetidan Xirosima shahriga eng ezgu tilaklar bilan" degan yozuv bitilgan. **Asila IBRAGIMOVA.**

XAVFSIZLIGINGIZ KAFOLATI - E'TIBORLI BO'LISH

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda firibgarlik va uning turlari ko'payib bormoqda. Buni viloyatimizda ham firibgarlar tuzog'iga tushib qolib, shaxsiy ma'lumotlaringizni begona shaxslarga berib qo'yish yoki bank kartasidagi pul mablag'larining talon-taroj qilinganligi yuzasidan murojaatlar soni kundan kun oshib borayotganida ham ko'rish mumkin.

Albatta, fuqarolar internetdagi turli so'rovnomalar, onlayn mikroqarz hamda aksiyalarga doir reklamalardan e'tiborli bo'lib foydalanishlari shart. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotganingizda so'rovnomada ishtirok eting, onlayn mikroqarz oling, degan yoki turli xildagi aksiya haqida oqolantiruvchi reklama chiqadi va havolani bosish orqali ishtirok etishingiz so'raladi (havola - siz bosadigan tugma yoki web sayt nomi). Havola orqali web saytga kirganingizda yoki mitllab turgan tugmani bosganingizda shaxsiy ma'lumotlaringiz, karta ma'lumotlaringizni kiritishingiz hamda yuborish tugmasini bosishingiz so'raladi. Yuborish tugmasini bosganingizdan so'ng sizga to'lov tizimlari yoki bank tomonidan tasdiqlash uchun SMS kod keladi, shu tasdiqlash kodni kiritishingiz so'raladi. Tasdiqlash kodini yuborishingiz bilan kartangiz boshqaruv ruxsatini boshqa shaxsga taqdim etgan bo'lasiz va u kartangizdagi pul mablag'larini istalgancha boshqarish imkoniga ega bo'ladi. SMS tasdiqlash kodi Telegram, Instagram, Faesbook yoki Google kabi boshqa massenjerlarga tegishli bo'lsa, demak, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy akkauntingizni egallab, barcha yozishmalaringizni, shaxsiy ma'lumotlaringizni ko'lga kiritishlari va sizning nomingizdan boshqa shaxslarga xabar yuborishlari orqali o'zlarining g'araz niyatlarini amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Hozirda ko'plab internet foydalanuvchilarining shaxsiy akkauntlari firibgarlar qo'lga olinib, ularning nomidan boshqa shaxslarga feyk xabarlar tarqatish holatlari uchramoqda. Buning oldini olish va firibgarlar tuzog'iga tushib qolmaslik uchun eng avvalo, sizga kelgan SMS tasdiqlash kodni begona shaxslarga bera ko'rmang. Har doim ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntingizni, ikki bosqichli xavfsizlik tizimi faolligiga e'tiborli bo'ling.

Ulug'bek ESHONQULOV,
kiberxavfsizlik xodimi.

15 kunda oziq-ovqat narxlari 10-26 foizgacha arzonladi

Keyingi ikki yilda dunyoda oziq-ovqat inflyatsiyasi yiliga 15-20 foizdan pasaymayapti, o'simlik yog'i, sut va go'shtning jahondagi narxi keyingi 30 yildagi, don mahsulotlari va shakar esa so'nggi 10 yildagi eng yuqori darajaga ko'tarilgan. O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish uchun 200 ming gektar yer ajratilgan, 500 ming gektar qo'shimcha yerlar oborotga kiritilgan ichki bozordagi narx-navoni barqaror ushlab turish va eksportni ko'paytirish imkonini beradi. Eksport-importda logistika, o'g'it va yoqilg'i xarajatlarini oshib ketgan ham oziq-ovqat narxlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Kuzatuvchilarning fikriga ko'ra, bu holat yaqin yillarda ham saqlanib qoladi.

Joriy yil 23-martda Prezidentimizning "Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni imzolandi. Farmon bilan 2024-yil 1-yanvargacha O'zbekiston hududiga olib kirishda bo'xona bojining nol stavkasi qo'llanadigan tovarlar ro'yxati tasdiqlandi. Jumladan, 36 turdagi qishloq xo'jaligi, meva-sabzavot, oziq-ovqat va noziq-ovqat mahsulotlariga bo'xona bojlarini undirilmaydi. Ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, O'zbekiston hozirga qadar 47 davlat bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimini joriy qilgan. Ya'ni, mazkur davlatlar ro'yxatiga kirmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar respublikamizga import qilinganda bo'xona bojining ikki barobar stavkasi qo'llanardi. Ushbu amaliyot ham avval 2023-yil 1-iyulga qadar bekor qilingan bo'lsa, endi bu muddat 2024-yil 1-yanvargacha qadar uzatildi. Bundan tashqari, O'zbekistonga

olib kiriladigan oziq-ovqat mahsulotlarini davlat tilida majburiy markirovka qilish tartibi ham vaqtinchalik to'xtatildi. Bu esa xorijdan oziq-ovqat mahsulotlarini olib kelishda birinchi galda tezkorlikni ta'minlaydi, natijada oziq-ovqat bozorida miqdor jihatdan ham, narx jihatdan ham barqarorlik ta'minlanadi. Viloyat bo'xona boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning birinchi choragida viloyatimizga 30761,2 ming dollarlik 66385,4 tonna qishloq xo'jalik, oziq-ovqat va meva-sabzavot mahsulotlari import qilingan va mahsulot uchun 48168,8 million so'mlik to'lovdan 16482,5 million so'm imtiyoz qo'llanilgan. Bo'xona qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari Ilhom Muxtorovning OAVga bildirishicha, "Boj stavkalarining nol foizga tushirilishi noqonuniy tovar aylanmasining qisqarishiga olib keladi. Ya'ni, bo'xona imtiyoz berilgan tovarlar o'tgan yil bilan taqqoslanganda 2022-yilda 1233 tadbirkor tomonidan qiymati qariyb

700 million dollarlik tovarlar import qilinib, 1,6 trillion miqdorida bo'xona to'lovlari undirilgan. Tabiiyki, tadbirkor bo'xona boji sifatida to'lgan bo'xona boji tovarning tannarxiga kiritadi va buning yuki oddiy iste'molchilar va xaridorga tushar edi. Shuning bilan birga, o'tgan yilda ushbu turdagi tovarlarning noqonuniy importi bo'yicha 856 ta huquqbuzarlik sodir etilgan, 26 milliard so'm qiymatidagi tovarlar bo'xona idoralari tomonidan olib qo'yilgan. Prezident qarori bilan ushbu tovarlarga nol stavka qo'llanishining o'zi mazkur turdagi tovarlarning xufiyona iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirishga olib keladi. Aslida noqonuniy tovar aylanish sabablari ham boj stavkalarining yuqoriligi bilan bog'liq. Aynan mana shu turdagi tovarlarga 20-30 foizlik stavkalar qo'llangan. Bu esa bo'xona chegaralari orqali aylandayotgan tovarlarni noqonuniy deklaratsiyalashga, to'lovlardan qochishga, bo'xona qiymatini pasaytirish kabi ko'plab salbiy omillarga

sababchi bo'lgan. Boj stavkalarining nol foizga tushirilishi mana shunga o'xshash holatning oldini olishga ham xizmat qiladi".

Kuzatuvlarga ko'ra, 2022-yilda bo'xona bojining nol stavkasi qo'llanishi belgilangan mahsulotlarning 57 foizi MDH davlatlaridan bojsiz olib kelingan, qolgan 43 foiz import qilinayotgan iste'mol tovariga bo'xona boji stavkasi qo'llangan. Hisob-kitoblarga ko'ra, bo'xona bojining pasaytirilishi ushbu mahsulotlar importining o'rtacha 6,7 foizga oshishiga olib keladi. Prezidentning videosektorida e'lon qilingan oziq-ovqat narxlariga bo'xona boji stavkasining nol stavkasi qo'llanilishi belgilangan 23-martdan so'ng dastlabki 15 kunda chakana savdo nuqtalarida ushbu imtiyozli tovarlarning narxi 10 foizdan 26 foizgacha arzonlagan.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) mutaxassislari tahlillariga ko'ra, bo'xona boji stavkalarini nolga tenglashtirish aholiga 600 milliard so'm miqdorida qo'shimcha mablag'ni tejash imkonini beradi. Bu esa iqtisodiyotdagi ichki talabning 0,45 foizga o'sishini rag'batlantiradi va iqtisodiy o'sishga oshiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Markaz ekspertlari prognozlariga ko'ra, Rossiya, Moldova, Qozog'iston, Belarus va Ukrainadan oziq-ovqat importi kamayishi kutilmoqda. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqidan import ko'payadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida importning eng katta o'sishi Polsha, Fransiya va Italiya hissasiga to'g'ri kelishi, savdoga eng ko'p ijobiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa mamlakatlar Turkiya, Xitoy va Hindiston bo'lishi kutilmoqda.

O'.XUDOYBERDIYEV.

Bo'lib o'tgan va voqea haqida yozgim keldi. Bilaman, o'qiganlar munosabat bildirmagan taqdirda ham, qandayligidan qat'iy nazar, mazkur holatni o'zlaricha baholaydilar.

QARORGA KIRMA Y QOLGAN BANDLAR

Alqissa, 6-aprel kuni tushga yaqin erta foydalanishga topshirilishi belgilangan mahalla binosida olib borilayotgan tayyorgarlik ishlarini ko'rish maqsadida Samarqand shahrida chekka hududida joylashgan bir mahallaga xodimim bilan bordik. Bino yonida bir necha qariya, loyqa suv oqishidan endigina o'rnatilgan ma'lum "qo'l krani"dan suv chiqarishayotgan ekan. Salamshib, "Hormang, bor bo'lgan" deyilishi bilan bizni hokimlik vakili deb o'ylagan bir otaxon mahallaga biritirilgan hokim yordamchisi va mahalla yoshlari yetakchisidan nolib qoldi. Ma'lum bo'lishicha, mahallada ish boshlagan va ikki xodim navqiron yoshda bo'lgani uchun qarivalar ulardan kranni o'rnatishga yordam berishlarini iltimos qilishgan, lekin ular bu ish o'zlariga taalluqli emasligini ro'kach qilib, yordam berishdan bosh tortishgan ekan. Xodimlarning ochiqdan-ochiq bu e'tirozi keksalarga yoqmagani tushunarli. Chunki davlat ularni mahallaga yuborganmi, demak, ular mahallaning har qanday ishiga yordam berishadi, deb o'ylashadi. Menda ham shu fikr uyg'ondi va bu ikki xodim bilan gaplashgim keldi. Yoshlar yetakchisi shaharga - yuqori tashkilotiga ketgan ekan. Hokim yordamchisiga mahalla qarivalari ulardan xafa bo'lishgani, bunday vaqtda albatta, yordam ko'rsatish kerakligini, bu xalqqa qo'shilish uchun bir imkoniyat ekanini tushuntirgandim, u fikrimga yordam ko'rsatish kerakligini, yoshlar yetakchisiga mahalla binosini foydalanishga topshirish uchun tayyorgarlik ketayotgani, u ham bu jarayonga ishtirok etsa, yaxshi bo'lishini aytdim.

Tayyorgarlik ishlarini ko'rish uchun soat beshlarga yaqin yana mahalla binosiga keldik. Mahalla raisi tashkiliy ishlarni qilishda bir o'zi qiynalayotganini ma'lum qildi. Yoshlar yetakchisi kelmadigan, hokim yordamchisi ketib qolgan. Hokim yordamchisiga telefon qilib, bino foydalanishga topshirilayotgan vaqtda

ishdan erta ketib qolgan yaxshi emasligini aytdim. Shu kuni Yoshlar agentligining shahar bo'limida ish boshlagan yangi rahbar bilan tanishgandim, unga bo'ekt ishga tushirilayotgan vaqtda yoshlar yetakchisi mahallada bo'lishi maqsadga muvofiqligini tushuntirdim.

Keç soat 9 larda mahalla yoshlari yetakchisi telefon qilib, menga o'ziga yuklatilgan vazifadan tashqari ish buyurilayotganidan shikoyat qildi. 92-qarorda unga nima qilishi lozimligi yozilgan, shu ishlarni bajarishga to'sqinlik qilinayotgani haqida gapirib, bizdan shikoyat qilishini ma'lum qildi. Qarorda unga topshirilgan vazifalarni sanab o'tarkan, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish deganda, men unga yoshlarni hasharlarga jalb qilish orqali ham ularning ijtimoiy faolligini oshirish mumkinligini tushuntirmoqchi bo'ldim. Esiz, tushunishni istamasligi uning qaysarligidan ma'lum bo'ldi.

U mening xodimimning kimligini so'rab oldi. Keyin mendan familiyam, ismim va otamning ismini, kim bo'lib ishlashimni bitta-bitta so'rab olarkan, o'zaro gapimizni diktafonda yozib olganini va tegishli tashkilotga yetkazishini ma'lum qildi.

Shunda, birdan tushkun holatga tushdim, xayolimda esa negadir Abdulla Qodiriy va Usmon Nosirilar, Shukrullo va Said Ahmadrani qamatib yuborgan odamlarning noma'lum qiyofalari gavdalandi.

Menga hozirgina yuzing i'iroq qilgan yoshlar yetakchisining yuzini ham ko'rmandim, u ham menga hali noma'lum edi. Tasavvur qilmoqchi bo'ldim, xudo ko'rsatmasin-u mahalla binosi yonida bir xonadonga o't ketdi. Hamma uni o'chirishga yopirildi. Faqat bir kishi chetda turibdi. Uning vazifasiga o' o'chirish kirmaydi.

Yo'q, tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday bo'lishi mumkin emas - odamiylikka to'g'ri kelmaydi.

Xurshid NURULLAYEV.
(2022-yil 7-aprel)

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR

DA'VOLAR BO'LSA...

Qo'shrabot tumanidagi "QO'SHRABOT MEGA BREND" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 309256576) o'z ustav fondini 500 000 000 (besh yuz million) so'mdan 482 500 000 (to'rt yuz sakson ikki million besh yuz ming) so'm kamaytirib, 17 500 000 (o'n yetti million besh yuz ming) so'm etib belgilamoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi. **Manzil: Qo'shrabot tumani "Do'stlik" MFY.**

Urgut tumanidagi "RAVON EKSPORT" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 305697086) o'z ustav fondini 135 920 659 (bir yuz o'ttiz besh milliard to'qqiz yuz yigirma million olti yuz ellik to'qqiz) so'mdan 22 016 417 (yigirma ikki million o'n olti ming to'rt yuz o'n yetti) so'm kamaytirib, 113 904 242 (bir yuz o'n uch milliard to'qqiz yuz to'rt million ikki yuz qirq ikki) so'm etib belgilamoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi. **Manzil: Urgut tumani "Quyqishloq" MFY.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromov Jamshid Qo'idoshevich notarial idorasida marhum Alaviyeva Nodira Kadirovna (2020-yil 23-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'srlarning Bahromov Jamshid Qo'idoshevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Muxitdinov Shaxobidin Sharafovichga (2021-

yil 13-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'srlarning Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Ziyorova notarial idorasida marhum Chabrova Lyudmila Yurevna (2022-yil 4-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'srlarning Aliyeva Lola Ziyorova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisrovna notarial idorasida marhum Amonov Ma-masharif Shamsiyevichga (2019-yil 21-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'srlarning Saidova Zarina Xisrovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI

Past Darg'om tumanidagi 40-o'rt maktabdan 1992-yilda Yariyev Orifjon Primovich nomiga berilgan A Ne156304 raqamli o'rta ma'lumot to'g'risidagi shahodatnoma yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Qo'shrabot tumanidagi "QOSHRABOT MEGA BREND" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309256576) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Ayollarning nafosat buyumlari

Oynaxalta, shonaxalta haqida nimalarni bilamiz?

Xalqimizning azaliy odatlaridan biri farzandni yoshligidan biror hunarga o'rgatishdir. Ayniqsa, qiz bolaga bo'lajak ona va orasta uy bekasi sifatida qaralib, yoshligidan hunarli bo'lishiga e'tibor berilgan. Shuning uchun ham har bir qiz o'rgangan hunarlari asosida kelajakda kelin bo'lib tushadigan xonadoni uchun kerak bo'ladigan buyumlarni o'zi tayyorlagan. Masalan, yangi kelinning toshoynasi yuzasini yopib qo'yadigan yoki ichiga solib qo'yadigan oynaxalta, uning tagida ilinib turadigan taroq solish uchun mo'ljallangan shonaxalta buyumlari shular jumlasidandir.

Shu o'rinda toshoyinalar tarixiga nazar soladigan bo'lsak, qadimgi turkiy xalqlarda toshoyinalar muhim ahamiyat kasb etganligini arxeologik topilmalar va yozma manbalarda ko'rishimiz mumkin. To'rt ming yillik tarixga oid bo'lgan Sopollitpa arxeologik manzilgohidan topilgan bronzadan yasalgan toshoyinalardan nafaqat ko'zgu sifatida, balki diniy marosimlarda ham foydalanilgan. Ana shunday buyumlar to'plami hozirda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanib kelinmoqda. Ayollarning nafosat buyumlari bo'lmish bunday osori atiqalar bizni tarix zarvarlarini chuqurroq o'rganishga undaydi.

Qadimda yangi turmush qurgan kelin-kuyovning baxt toshoyinalari bo'lib, ular maxsus

xaltachalarda saqlangan yoki toshoyna yuzasi mato bilan yopib qo'yilgan. Agar toshoyna yuzasi ochiq holda qolsa, kechqurun shayton aksini ko'rinadi, degan irimlar ham bo'lgan. Shu bilan birga, ushbu toshoyinalar sinishdan juda ehtiyot qilingan. Agar baxt oynalari sinib, oila parokanda bo'ladi, degan aqidaga ishonishgan. Mayda kashtachilikda ko'proq shakllangan oynaxalta buyumlaridan ana shu maqsadda, ya'ni toshoyinalarning yaxshi saqlanishi va har xil begona nazarlar aksini tushmasligi uchun maxsus xaltacha sifatida foydalanilgan. Bunday ashyolarga asosan kashtali naqshlar bilan bezaklar tikilgan bo'lib, ular har bir yangi kelin uyida bo'lgan va uyning bezagi sifatida ham foydalanilgan. Ushbu kashtali buyumlarni asosan Samarqand,

Buxoro, Nur-ota, Shahrisabz va Jizzax kashtachilikda uchratish mumkin.

O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyining "O'zbekiston kashtachilik san'ati" ekspozitsiyasida amaliy san'atning mayda kashtachilik turiga mansub bo'lgan XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid oynaxalta va shonaxaltalarning bir necha turlari namoyish etilgan. Ushbu buyumlar asosan, ilmiy etnografik ekspeditsiyalar jarayonida muzey fondlarida to'plangan. Ular orasida Buxoro, Nur-ota kashtachilik maktablariga xos bo'lgan oynaxalta va shonaxalta namunalarini nafis bejirim naqshlari "Kandahayol", "Chindahayol" va "Yo'rma"



texnikasida tikilganligi alohida ajralib turadi. Naqshlarda ham butasimon, bodomsimon va lolasimon kabi bezak elementlarini ko'rish mumkin. Samarqand kashtachilikda ishlangan oynaxaltalarda afsonaviy ko'rinishdagi bezaklar tikilganligini ko'rish mumkin.

Oynaxalta, shonaxalta kabi ayollarning estetik saranjomligi uchun xizmat qilgan buyumlar bugungi kunda muomalada deyarli uchramaydi. Ular o'rni bosuvchi zamonaviy va bejirim ko'rinishdagi anjomlar urfga kirgan. Lekin har bir ayolning qalb qo'ri, dil izhori singdirilgan, nozik did bilan qo'lda tikilgan kashtachilik buyumlari amaliy san'atning nafis turlari sifatida qadrlanaveradi.

Safura RO'ZIMUROTOVA, O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi san'at bo'limi mudiri.



Hemis

tizimini ham o'zimizga moslashtirib oldikmi?

Hemis axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatini avtomatlashtirish orqali ma'muriyat xodimlari, professor-o'qituvchilar va talabalariga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi.

Hemis tizimi 2020-yildan boshlab O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida qo'llanila boshladi. Hozirgi kunda 154 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi bu tizimga o'tgan. Talabalar tizimga bir kunda o'rta 4 soat vaqt ajratadi. Tizimdan kerakli bo'lgan fan resurslari: ma'ruza, seminar, amaliyot, mustaqil ishdagi ma'lumotlarni olib fanlarni o'zlashtiradi. Hemis tizimi 100 balga moslashtirilgan bo'lib, har bir fandan talaba yiqqan ballarni semestr oxirida hisoblab beradi. Har bir bajarilgan mustaqil ish mavzusiga 20 baldan beriladi. Yakuniy nazorat imtihoniga kirishi uchun talaba 24 baldan 40 balgacha to'plashi zarur, qolgan 60 balni yakuniy nazorat imtihonidan to'playdi.

Hemis tizimida darsga kechikib kelgan va sababsiz dars qoldirgan talaba qayd etib qo'yiladi. Talaba betob bo'lsa, qoldirgan darsi uchun tibbiy punkt dan 0,96 forma shaklida ma'lumotnoma taqdim etishi lozim. Darsga kech qolgan talaba esa tushuntirish xati orqali tizim mutaxassisiga "nb" sini tuzatiradi. Tizimdan yetarlicha ball to'play olmagan talaba yakuniy nazorat imtihonlariga kiritilmaydi.

Imtihondan yiqilgan talabalar yozgi semestrda bir oy davomida mutaxassislar tomonidan o'qitiladi va qayta imtihon topshirishlari uchun fanning kredit miqdorini to'laydi. Masalan, bitta fan 5 kredit bo'lsa, talaba o'rta 650 ming so'm to'lab, ikkinchi marta imtihonga kiradi. Tizimda talabaning yakuniy nazorat imtihonidan o'tishi uchun bir marta imkoniyat berilgan. O'tgan yili talabalarga uch martagacha yakuniy nazorat imtihonlarini topshirishga ruxsat berilgan edi. Talaba imtihondan uchinchi marta ham o'tolmasa, undan keyin kredit to'lab, qayta o'zlashtirgan bo'lsa, bu yil negadir talabalarga bunday imkoniyat berilmayapti. Shuning uchun ham talabalarining asosiy qismi mana shu tartibdan norozi.

Kredit to'lashni hamma oilaning ham sharoiti ko'tarmaydi. Shu sababli tizimda yakuniy imtihonlarni topshirish uchun ikkinchi marta imkoniyat berilishi kerak. Kredit to'lashim kerak, deb ishlab yurgan talabalarni ham bilamiz.

Yevropa mamlakatlarida Hemis tizimida talabalar o'qiydi, izlanadi, bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Mustaqil ish mavzularini ham tizimda topshiradi. Professor-o'qituvchilar bilan laboratoriya ishlarini olib borib, ilmiy ish yoqlashadi. Ko'proq vaqtini tizimda fanlarni o'zlashtirishga qaratadi. Talaba darsga qatnashgan, qatnashmaganligini ham tizimning o'zi belgilaydi. Bizda ham Hemis tizimi mukammal ishlab chiqilib, talabani rivojlangan davlatlardagi singari o'z kasbini sevadigan, yetuk mutaxassis bo'lib yetishiga xizmat qilishi zarur.

Marjona BOBOMURODOVA, Samarqand davlat universiteti talabasi.

Pushaymon

Bo'lgan voqea

Uning padari buzrukvori nihoyatda salohiyatli, ziyoli, kayvoni inson edi. Nafaqat oilasida, mahallada ham ma'naviyatda yurish-turishi bilan barchaga ibrat ko'rsatardi. Tabiiyki, o'g'liga ham shunday tarbiya berdi. Shu boisdan u bolaligida, maktabda o'qiganida atrofda qolgan bilan juda shirin muomala qilar, duch kelganga salom berardi. Tag'ini, qo'lini ko'ksiga qo'yib, "Assalomu alaykum" deb salomlashardi. Ochig'i, odamlar unga havas qilishar va "otasining bolasida" deb qo'yishardi.

U maktabda ham yaxshi o'qidi, oliyog'ida ham. Ustozlariga ehtiromni joyiga qo'ydi. Hatto o'qishni tugatib, shahardagi kichik tashkilotning biriga xodim sifatida ishga kirganida ham xonasiga kirganlar bilan o'rindan turib ko'rishardi.

...Hayot nomutanosisliklarga shunchalik boy ekanki, ba'zan ertalab ko'rgan voqeang kechqurunga borib boshqacha bo'lib ro'parangdan chiqadi. Ayrimlar shunchalik tez o'zgarib ketyaptiki, gohida ishinging kelmay qoladi.

Unda ham shunday bo'ldi, chunki uni bo'lim boshlig'i qilib qo'yishdi. Yo'q-yo'q, ko'rishmaydi emas, faqat "salom" deydi bo'ldi. Yillar o'tib, shu tashkilot boshlig'iga o'rinbosarlikka tayinlandi. Endi u yoshidan qat'i nazar, xodimlaridan salom kutib turar, alik o'rni esa "yaxshimisiz" deb qo'yardi. Yomoni shundaki, o'zidagi bu o'zgarishni u sezmasdi. Ehtimol, mansabning salohiyati ta'sir qilganmi.

Yana yillar o'tgach, shu tashkilotga rahbar bo'ldi. Voajab... Xonasiga kirgan kishilar unga qarab qo'lini ko'ksiga qo'yib salom berishsa, bosh iring'ab qo'yadigan, imo-ishora bilan "o'tir" yoki "boraver" deyidigan bo'ldi. Mahallada ham anchagina ilgari o'zi birinchi bo'lib salom beradigan onaxon va otaxonlarga

mashtina oynasidan boshini qimirlatib o'tadigan bo'ldi.

Ammo... u o'zidan katta rahbarlar bilan hamon otasi o'rgatgandek salom-alik qilardi. Tavba, mansabning kuchi shunchalik qudratlimi-a?!

Hayotning o'zgarishi, shafqatsiz vaqtning o'tishi uning o'zgarishidan kuchliroq chiqdi. Mavridi keldimi, xato qildimi, bilmadik. Ammo vazifasidan olishdi. Bir muddat uyda o'tirgach, zerikdi, chunki so'rab keladigan odami sanoqli edi, hatto ular ham birin-ketin oyoq uza boshlashdi.

U o'zicha avvalgidek ko'chaga chiqdi. Lekin atrofda gilarning birortasi to'xtab, salom bermaydi, beparvo o'tib ketishadi, yoki "salom" deb qo'yishadi. U davr qurboni emas, vijdon qurboni bo'lganligini anglay boshladi. Albatta, tili o'tkirlardan birortasi piching qilgan bo'lsa ham ajab emas. Hatto odamlarning kechirmasligini ham anglab yetdi. Hazrati insonlar bilan, otaning saboqlari bilan hazillashish mumkin emasligini tushundi. Ming afsuski, vaqt o'tgan edi, kech tushundi.

U bugun ertalab turib, otasining qabriga bordi. Quyoshning zarrin nurlari sharq tomondan qabring bir tomonini jilvaga bo'yab turardi. Marmar toshdagi suratga qarab yuragi to'lib ketdi.

- Assalomu alaykum, otajon... Meni kechiring. U otasining javob bermasligini biladi. Endi xudoning oldida o'zi javob berishi kerakligini ham biladi. Shu sababli tilovat qilgach, o'rindan turib, quyosh nurlari bilan birga yana o'sha bo'm-bo'sh uyiga qarab yurdi.

Tohir HAMIDOV, Kattaqo'rg'on shahri.

O'GAY ONA Turmush chorahalarida

Latofat opa tug'ilgan kunida Damin yo'qlab keladi, deb sira o'ylamagan edi. Oshxonada ovqatga unmayotgan edi, tashqaridan ovoz eshitildi.

- Ena, enajon! "Voy, Daminjonning tovushimi? Ena dedimi?" opa qo'llarini furtugiga artib, shosh-pisha Daminga peshvoz chiqdi. Qo'lida katta karton quti, darvozadan kulib Damin kirib kelardi. U qutini chorpayoga qo'yib, Latofat opa quchog'iga otildi.

- Ena degan tillarindan aylanay, bolam! - opa ko'z yoshlarini tiya olmay, Daminning yuz-ko'zlaridan o'pa ketdi. Shu bir og'iz so'zni eshitish uchun u necha yillar zoriqib kutdi. Alam va iztiroblarga dosh berdi. Farzand mehri nimaligini, armon va sog'inchlarini tirmoqqa zor onalar yaxshi biladi.

- Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman, enajon! - Damin Latofat opaning bag'ridan zo'rg'a chiqib, sovg'asini enasi qo'lga tutdi.

"Tug'ilgan kuningiz dedimi? O'zi qachon tug'ilganman?" - Latofat opa mehri bilan Daminga tikildi. Ko'z yoshlari to'xtamasdi.

...Damin onasi vafot etib, yetim qolganida uch yoshda edi. Yosh bo'lsa-da, onaizoridan judo bo'lish murg'ak qalbidagi qattiq muhrlanib qolgan edi. Endi uni bag'riga bosib, yuz-ko'zlaridan o'pib

erkalatuvchi mushfiq ona yo'qligiga, hech qachon qaytib kelmasligiga ko'nika olmas, suratiga termulib, ko'ksiga bosib, ho'ng-ho'ng yig'lardi...

Avtobazada shofyor bo'lib ishlovchi Islom aka ishga barvaqt ketib, kech qaytardi. Yolg'iz yosh go'dak bilan yashash qanchalik og'irligini angladi. Sobiraning yili o'tgach, Latofatni boshlab keldi. Farzandsizlik tufayli eridan ajralgan Latofat tirmoqqa zor, umid va ilinjida Islom akaga tegishga rozi bo'lgandi.

- O'g'lim, mana senga oyi olib keldim, - Islom aka Daminni tizzasiga olib erkaldi.

- Bu mening onam emas, - u Latofat opaga yovqarash qilib, yuzini o'girdi va ho'ngrab yig'lab yubordi. Islom akaning ko'ngli buzildi.

- Bo'pti, bor o'yna! Xafa bo'lmang, go'dak-da, hali ko'nikib ketadi, - xo'rsindi Islom aka Latofat opani yupatib.

Lekin Damin ko'nikmadi, qovog'ini ochmadi, Latofat opaning so'zlariga miq etib javob bermasdi. Nasib etmagan ekan, opa Islom akadan ham farzand ko'rmadi. Barcha dard-alamlarini, Daminning inijliklari, yovvoyi qarashlarini ichiga yutdi. Sabr-qanoat bilan yaxshi kunlar kelishiga ishonib yashadi.

Ro'zg'orni obod qilib, ota bilan bolani oq yuvib, oq tarab, o'gayligini bildirmay yashadi. Damin armiyaga ketayotganida

undan yuz-ko'zlarini o'g'irib, o'zini tortishiga qaramay, mehri bilan bag'riga bosdi, ko'z yoshlarini tiya olmadi.

Damin armiyadan qaytgach, Toshkentga o'qishga kirdi, biroq o'gay onaga zararcha mehri yo'qonmadi, ko'ngli ilimadi. O'qishni bitirib, poytaxtda ishlay boshladi. Kunora otasiga qo'ng'iroq qilib, hol-ahvol so'rab turar, biroq biror marta Latofat opani eslamasdi. Opa xudo farzand bermagani-dan o'ksinib, yashirincha o'kirib-o'kirib yig'lab olardi. Xudoning marhamatini qarang, Damin undan qancha o'zini olib qochsa, opa unga onalik mehri bilan shunchalik qattiq bog'lanib borardi. Daminning ham ko'nglida xuddi shunday pinhon tuyg'u bosh ko'tarayotgan edi. "Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'", deganlari rost ekan.

Allohu shukrona va iltijolari Latofat opaga tuhfa bo'lib qaytdi. Latofat opa og'ir tush ko'rayotganday cho'chib o'ziga keldi. Xotiralar ko'z o'ngidan o'tgandi. Xayolini Damin bo'ldi:

- Bo'ldi, bo'ldi, enajon, yig'lamang. Ishni Samarqandga ko'chirdim, endi doimo yoningizda bo'laman.

- Bo'yaringga o'zim qoqindiq, bolam. Qanday yaxshi bo'libdi. Uylansang, nabilarimga o'zim qarayman. Latofat opa shu tobdan barcha chekkan iztiroblarini unutgan, yosh boladay quvonchini yashira olmasdi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

Toyloq tumanidagi chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismda "Yosh chegarachilar" harbiy-sport musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

"Sohibqiron" jamoasi "Yosh chegarachilar" musobaqasi g'olibi



Maktabgacha va maktab ta'limi, Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmalari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi hamda boshqa tashkilotlar hamkorligida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan musobaqada uchta jamoa kuch sinashdi.



Bulung'ur tumanidagi 4-maktabning "Sohibqiron" jamoasi birinchi o'rinni egallab, musobaqaning respublika yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Keyingi o'rinlar Urgut tumani-dagi 16-maktabning "Lochinlar" va Toyloq tumanidagi 29-maktabning "Yetakchilar" jamoalariga nasib etdi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

26-APREL
Farid TUXFATULLIN - 1936-yilda Qoraqalpog'istonda tug'ilgan. Fizika-matematika fanlari doktori.

27-APREL
Odil SUNNATOV - 1951-yilda Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

Jahongir VOHIDOV - 1995-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Hindistonning Chennay shahrida o'tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g'olibi. "O'zbekiston iftixori" unvoni sohibi.

30-APREL
Jahongir ZAYNALOV - 1950-yil Samarqand shahrida tavallud topgan. Iqtisod fanlari doktori, professor.

MATBUOT UYI

Zarafshon

САМАРҚАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 578 nusxada chop etildi. Buyurtma 218. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G'.HASANOV.

Navbatchi: D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda